



INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARINING KAFOLATLANISHI

Orazmetova Nargiza Shavkatovna

Toshkent viloyati Qibray tumani 39- umumiy
o'rta ta'lim maktabi huquq fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Inson Huquq va erkinliklarining kafolatlanishi, uning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida yoritilishi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida aks etishi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Inson huquqlari, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Oliy Majlis.

Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari - inson va fuqarolarning Konstitutsiya shuningdek qonunlarda mustahkamlangan huquqlari hamda erkinliklarini amalga oshirishni davlat tomonidan ta'minlashga yordam beradigan vositalar, usullar shu jumladan shart-sharoitlar majmui hisoblanadi. Inson huquqlari hamda erkinliklarining kafolatlarini quyidagicha turkumlash mumkin deb hisoblanadi: yuridik, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy deb qaraladi. Yuridik kafolatlar deganda fuqarolarning huquqlari shu bilan bir qatorda erkinliklari qonunlar asosida huquqiy jihatdan kafolatlanishini anglash mumkin. Yuridik kafolatlarining quyidagi shakllari mavjud deb qaraladi: konstitutsiyaviy huquqiy kafolatlar; sudlar tomonidan huquqlar shuningdek erkinliklarni kafolatlash; ombudsman faoliyati; hukumat faoliyatini qayd etib o'tish joiz¹

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 1948 yil, 10 dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) ko'rsatmasi orqali qabul qilingan va e'lon qilingan.

¹Toychiyev, N., ed (2009). "Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari". *O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi*.



Insoniyat oilasining hamma a'zolariga xos qadr-qimmat va ularning teng, ajralmas huquqlarini tan olish erkinlik, adolat va yalpi tinchlik asosi ekanligini e'tiborga olib;

inson huquqlarini mensimaslik va uni poymol etish insoniyat vijdoni qiynaladigan vahshiyona ishlar sodir etilishiga olib kelganini, kishilar so'z erkinligi va e'tiqod erkinligiga ega bo'ladigan hamda qo'rquv va muhtojlikdan holi sharoitda yashaydigan dunyoni yaratish insonlarning ezgu intilishidir deb e'lon qilinganligini e'tiborga olib;

inson oxirgi chora sifatida zulm va istibdodga qarshi isyon ko'tarishga majbur bo'lishining oldini olish maqsadida inson huquqlari qonun kuchi bilan himoya etilishi zarur ekanligini e'tiborga olib;

xalqlar o'rtasida do'stona munosabatlarni rivojlantirishga ko'maklashish zarurligini e'tiborga olib;²

Birlashgan Millatlar xalqlari insonning asosiy huquqlariga, shaxsning qadr-qimmatiga, erkak va ayolning teng huquqliligiga, o'z e'tiqodlarini Nizomda tasdiqlaganliklari hamda yanada kengroq erkinlikda ijtimoiy taraqqiyot va turmush sharoitlarini yaxshilashga ko'maklashishga ahd qilganliklarini e'tiborga olib;

a'zo bo'lgan davlatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikda inson huquqlari va asosiy erkinliklarini yalpi hurmat qilish va unga rioya qilishga ko'maklashish majburiyatini olganligini e'tiborga olib;

mazkur huquqlar va erkinliklarning xarakterini yalpi tushunish ushbu majburiyatlarning to'liq ado etilishi uchun katta ahamiyatga ega bo'lishini e'tiborga olib;

Bosh Assambleya mazkur Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini barcha xalqlar va barcha davlatlar bajarishga intilishi lozim bo'lgan vazifa sifatida e'lon qilar ekan, bundan muddao shuki, har bir inson va jamiyatning har bir tashkiloti doimo ushbu Deklaratsiyani nazarda tutgan holda ma'rifat va ta'lim yo'li bilan bu huquq va erkinliklarning hurmat qilinishiga ko'maklashishi, milliy va xalqaro taraqqiyparvar tadbirlar orqali ham uning bajarilishi ta'minlanishiga, Tashkilotga a'zo bo'lgan davlatlar xalqlari

² Inson Huquqlari umumjahon deklaratsiyasi...



oʻrtasida va ushbu davlatlarning yurisdiksiyasidagi hududlarda yashayotgan xalqlar oʻrtasida yalpisiga va samarali tan olinishiga intilishlari zarur.

Inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilishning taʼminlanishi demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishning muhim sharti hisoblanadi. Shunga asosan, Oʻzbekiston oʻz mustaqilligiga erishgach, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning zamirida, inson huquq va erkinliklariga boʻlgan eʼtibor, insonlarning shaʼni va qadr-qimmatini hurmat qilish, inson huquqlarini eng oliy qadriyat sifatida eʼtirof etish kabi gʻoyalarni bosh maqsad qilib qoʻydi.

Qisqa vaqt ichida fuqarolar huquq va erkinliklarini taʼminlaydigan huquqiy soha tashkil etildi, demokratiya va fuqarolik jamiyatining asosiy institutlari shakllantirildi, huquqni qoʻllash amaliyoti takomillashtirildi.

Qayd etish kerakki, bugungi kunda mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari hamda kafolatlari bilan bir qatorda uning tashkiliy mexanizmlari ham yaratilgan. Konstitutsiyamizda fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy huquqlari, jamiyat rivojlanishining strategik yoʻnalishlari, boshqaruvning adolatli va demokratik prinsiplari, shuningdek maʼnaviy qadriyatlarimiz asoslari oʻz ifodasini topgan.

Taʼkidlash lozimki, asosiy qonunimizning 13-moddasiga asosan “Oʻzbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga koʻra inson, uning hayoti, erkinligi, shaʼni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi”. Shundan kelib chiqqan holda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar markazida birinchi oʻrinda – inson, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini nazarda tutilganligini koʻrish mumkin.

Shuningdek, mamlakatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish sohasidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi Oliy Majlisning Inson huquqlari boʻyicha vakili (ombudsman) tomonidan amalga oshirilmoqda. Yangi tahrirdagi “Oliy Majlisning inson huquqlari boʻyicha vakili (ombudsman) toʻgʻrisida”gi Qonunning 1-moddasiga muvofiq,



“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) mansabdor shaxs bo‘lib, unga davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari hamda erkinliklari to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan parlament nazoratini ta‘minlash vakolatlari berilgan”.

Ijtimoiy-siyosiy kafolatlar davlatda amal qilib turgan siyosiy tizim bilan bog‘liq. Ushbu tizim inson huquq va erkinliklari buzilishining oldini olish uchun xizmat qiladi. Zero, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash ko‘pincha davlatning olib borayotgan ijtimoiy siyosatiga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, Konstitutsiyamizning 45-moddasiga ko‘ra, “Voyaga yetmaganlar, mehnatga layoqatsizlar va yolg‘iz keksalarning huquqlari davlat himoyasidadir” deb belgilab qo‘yilgan. Darhaqiqat, bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida aholini ijtimoiy himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanishi lozim.

Bundan tashqari, mamlakatimizda inson huquqlarini ta‘minlash borasidagi chora-tadbirlar inson huquqlarining umume’tirof etilgan g‘oyalari va qadriyatlariga, shuningdek, xalqaro majburiyatlarga sodiqlik, amalga oshirilayotgan barcha siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning bosqichma-bosqich xarakterda ekanligi; demokratiya va ijtimoiy adolat g‘oyalariga sadoqatimizni namoyon etish orqali, xalq hokimiyatchiligini mustahkamlash; xalq vakilligi institutlarini rivojlantirish; demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyati shakllanishiga asoslanganlik; insonparvar demokratik huquqiy davlatni barpo etish yo‘lida hamma narsa inson uchun, inson baxt-saodati uchun yaratilganligi kabi va boshqa bir qator demokratik tamoyillar asosida amalga oshirilmoqda.

Ko‘rsatib o‘tish joizki, konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlar mazmunan quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzish mumkin bo‘lgan harakatlarni taqiqlash hamda chegaralashning yuridik meyorlarini mustahkamlash;



- fuqarolarning o‘z huquq va erkinliklarini hech qanday to‘siqsiz amalga oshirishlarida davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning mas’ulligi;
- tajovuz etishdan himoyalaniшни ta’minlovchi maxsus meyorlar (shikoyat, sudga murojaat qilish huquqlari) mavjudligi;
- huquqlarni buzganlik uchun yuridik javobgarlikning belgilanganligi;
- davlat va fuqarolarning huquqlarini amalga oshirishni mustahkamlashda jamoat tashkilotlari hamda mansabdor shaxslarning faoliyati.

Konstitutsiyaviy kafolatlarga bevosita mamlakat Konstitutsiyasining o‘zida mustahkamlangan kafolatlar kiradi. Inson va fuqarolarning huquqlari kafolatlari ichida fuqarolarning teng huquqliligi tamoyili alohida o‘rin tutadi. Konstitutsiyamizning 18-moddasiga muvofiq, “O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar³”.

Fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlaridan yana biri fuqarolarning murojaat qilish huquqi siyosiy huquqlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Konstitutsiyamizning 35-moddasida “Har bir shaxs bevosita o‘zi va boshqalar bilan birgalikda vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqiga ega” ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu moddada belgilangan norma fuqarolarning siyosiy huquqlaridan biri hisoblanib, ularning davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga murojaat qilish huquqlarini belgilaydi.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, inson huquqlari rivojlanishi uzluksiz davom etuvchi va takomillashib boruvchi jarayon hisoblanadi. Shunga ko‘ra, inson huquqlariga oid norma va qoidalarni har bir shaxs qalbi va ongiga singdirishi, o‘z fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishi va o‘z navbatida, milliy o‘zlikni anglashga hamda huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati shakllantirilishiga o‘z hissasini qo‘shmog‘i lozim.

³ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi...

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent 2023.
2. O`zbekiston Prezidenti Shvkat Mirziyoyev 2017-yil 22 – dekabr kuni Oliy Majlisga qilgan Murojatnomasi.// Xalq so`zi, 2017-yil 23-dekabr.
3. Toychiyev, N., ed (2009). "Inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari". O`zbekiston yuridik ensiklopediyasi. Toshkent: „Adolat“ nashriyoti. p. 216.
4. Inson Huquqlari umumjahon deklaratsiyasi.1948-yil
5. Sh. Parmonov Buxoro amirligi siyosiy jarayonlarida Shahrisabz bekligining tutgan o`rni.Monografiya Toshkent Grand Kondor Print 2023.
6. Botirova Halima Eshmamatovna, Parmonov Sharofiddin Shavkatovich Journal of Advanced Zoology Ethnic History of Shakhrisabz Province at The Beginning of The Xix-Xx Centuries.